




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2023- YIL YANVAR
(DASTLABKI MA’LUMOT)**



**Tel.: 71-202-80-47
www.stat.uz**


Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda respublikada 93,9 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 15,9 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 16,9 % i) Toshkent shahriga, 10,1 mingtasi (10,7 %) Farg'ona viloyatiga, 9,6 mingtasi (10,3 %) Toshkent viloyatiga, 9,4 mingtasi (10,1 %) Andijon viloyatiga va 8,3 mingtasi (8,8 %) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelmoqda.


Jami faoliyat yuritayotgan

(1-fevral holatiga ko'ra)




Jami yangi tashkil etilgan

(1-fevral holatiga ko'ra)



Toshkent sh.






Faoliyat yuritayotgan yangi tashkil etilgan

O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida respublika korxonalaridan 33,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 90,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy viloyatida (6 669,6 ming so'm), Toshkent viloyatida (2 012,7 ming so'm) hamda Toshkent shahrida (2 001,0 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (941,9 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.




ming. so'mda o'sish sur'ati, % da



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 25,5 trln. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 75,8 % ni tashkil etdi.

yanvar
trln. so'mda



B

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C

Ishlab chiqarish sanoati

D


Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2023- yilning yanvar oyida respublikada jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Navoiy viloyati (20,8 %), Toshkent viloyati (17,8 %), Toshkent shahri (17,3 %), Farg'ona viloyati (5,0 %) hamda Qashqadaryo (4,8 %) viloyati hissasiga to'g'ri keldi.

yanvar
FHI, % da







yanvar
ulushi, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, hududlar kesimida

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,4 trln. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 13,1 % ga toʻgʻri keldi.



yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha
(O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**




Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar	2023-yil yanvar	Farqi +/-
Ko'mir ming t.	481,6	415,0	- 66,6
Neft, ming t.	61,8	64,5	2,7
Tabiiy gaz, mln. kub.m	4 662,2	4 311,9	- 350,3
Gaz kondensati, ming t.	120,4	109,4	- 11,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan – bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25,5 trln. so’mini yoki jami sanoat mahsulotlarining 75,8 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,9 % ni (2022- yilning yanvar oyida – 3,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 14,9 % (18,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 39,9 % (39,8 %), quyi texnologiyali 42,3 % (38,4 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 13,1 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 80,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 31,6 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 100,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,3 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 89,8 %)ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,3 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 90,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,6 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 65,6 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda 139,6 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 42,7 % ga ko'paygan), 31,5 ming tonna kalava ip (31,0 % kamaygan), 5,5 mln. litr pivo mahsulotlari (23,4 % ga kamaygan) hamda 116,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (21,4 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) dona	12 297	3 287	- 9 010
Yuk avtomobillari, dona	64	138	74
Avtomobil dvigatellari dona	12 648	4 984	- 7 664
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	148,2	116,5	- 31,7
Paxta tolasi ming t.	74,0	53,5	- 20,5

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar oyida)

Yuk avtomobillari – barcha turdagi yuklarni tashish uchun mo'ljallangan dizel yoki boshqa turdagi yoqilg'i yordamida harakatlanuvchi transport vositasi.


Respublikada 2023- yilning yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha jami 138 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,8 martaga ko'payish kuzatildi.



Avtobus ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar oyida)

Avtobus – 9 va undan ortiq o'rinli yo'lovchilar tashiydigan texnik jihatdan mexanik motorli transport vositasi.

Respublikada 2023- yilning yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha jami 22 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,0 martaga ko'payganligi kuzatildi.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

O'zbekiston Respublikasida Yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar oyida)

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo‘linib 2 kishidan 8 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2023- yilning yanvar oyida 3 287 dona “Damas” avtomobili ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 10,0 % ga kamaydi, shuningdek 1 698 dona maxsus yengil avtomobillar ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 % ga kamayishi kuzatildi.



“Damas”



Maxsus yengil avtomobillar




Avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar oyida)

Avtomobil dvigateli – avtomobilni harakatga keltiruvchi asosiy qurilma bo‘lib, 2,3,4 va undan ortiq silindrli bo‘lishi mumkin.

Respublikaning mashinasozlik sanoatida yirik korxonalar tomonidan 4 984 dona avtomobil dvigatellari ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 60,6 % ga kamaygan.



o‘shish sur‘ati, % da*




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

Akkumulyator ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar oyida)

Akkumulyator – keyinchalik foydalanish maqsadida energiyani to'plash va saqlash uchun mo'ljallangan qurilma.



2023- yilning yanvar oyida mashinasozlik sanoatida, jami yirik korxonalar tomonidan 88,3 ming dona akkumulyatorlar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 martaga ko'paygan.



Sovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar oyida)

Sovutgich – issiqlik izolyatsiya qilingan xonada past haroratni saqlaydigan qurilma. **Muzlatgich bu** – alohida jihoz yoki muzlatgichning ajralmas qismi, muzlatish va saqlash uchun mo'ljallangan.

2023- yilning yanvar oyida jami yirik korxonalar tomonidan 19,8 ming dona sovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34,9 % ga oshgan.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar	2023-yil yanvar	Farqi +/-
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida, t.	1 250,9	166,0	- 1 084,9
Portlandsement, ming t.	581,7	259,2	- 322,5
Tamaki mahsulotlari, mln.dona	713,7	836,6	122,9
Dizel yoqilg'isi, ming t.	43,1	50,5	7,4
Avtomobil benzini, ming t.	97,8	139,6	41,8

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, dinatriy karbonati ishlab chiqarish (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 102,1 %) hamda kaliy xlorid ishlab chiqarish 59,9 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 31,6 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,7 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 8 057,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 46,3 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 667,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 16,2 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,0 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 4 134,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 74,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 575,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,9 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 14,2 % ga pasayib, ishlab chiqarish hajmi 4 042,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,0 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 007,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,4 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 60,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 624,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo‘lgan xom neft va ko‘mir mahsulotlarini qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo‘lgan krekning va distillyatsiyalash yo‘li bilan neftni tozalash. Shuningdek etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,2 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 101,4 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 557,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 86,8 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 299,9 mlrd. so‘m kuzatildi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo‘lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 2,9 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 93,8 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 739,6 mlrd. so‘m ekani kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblardan uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 79,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 493,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.




2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,5 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 48,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 136,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, hududlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,6 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,6 % ini) tashkil etgan.



mlrd. so'mda  FHI, % da 

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 98,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 91,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	6 678,4	6 542,7	- 135,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3 369,0	3 067,7	- 301,3



(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi






* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish, hududlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,2 trln.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.



mlrd. so'mda FHI, % da

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 23,7 % ga, to'qimachilik chiqindilarining 38,3 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 6,5 % ga pasayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	29,0	27,1	- 1,9
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	41,4	31,6	- 9,8
To'qimachilik chiqindilari, t	1 314,7	811,3	- 503,4

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 8,4 trln.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 86,3 %, uning jami sanoatdagi ulushi 25,0 % ga to'g'ri keldi.


Oziq-ovqat mahsulotlari



2023- yilning yanvar oyida respublikada 4,3 trillion so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,1 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan respublika bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Samarqand viloyati (102,6 %), Sirdayo viloyati (101,2 %) hamda Namangan (101,0 %) viloyati korxonalarini tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar






Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 50,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 49,2 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar oyida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 36,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 63,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 106,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 72,3 % ga to'g'ri keldi.


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 18,9 %, shuningdek, Toshkent viloyati 18,4 %, Samarqand viloyati 11,6 %, Andijon viloyati 7,9 % ekanligi kuzatildi.




Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol tovarlarining ulushi





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 235,5 ming so'm bo'lgani holda, Toshkent shahrida – 544,5 ming so'mni, Toshkent viloyatida – 519,8 ming so'mni, Xorazm viloyatida – 316,3 ming so'mni va Navoiy viloyatida – 262,9 ming so'mni tashkil etdi.





ming. so'mda

o'sish sur'ati, % da





Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent viloyatiga to'g'ri kelib, 19,2 %, shuningdek, Toshkent shahri 14,8 %ni, Samarqand viloyati 11,9 %ni, Andijon viloyati 10,8 %ni tashkil etdi.




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 22,9 %ni, Toshkent viloyatiga 17,6 % va Samarqand viloyatiga 11,2 % ekanligi kuzatildi.

yanvar
mlrd.so'mda






Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

yanvar
o'sish sur'ati, % da



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7,8 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,4 %ni tashkil etadigan boʻlsa, 2022- yilning yanvar oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 18,5 %ni tashkil etgan.



mlrd. soʻmda Ulushi, % da